

O`SMIR SHAXSIDA O`Z-O`ZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumamurodova Umida Murodbayevna
O`zbekiston Milliy Universiteti psixologiya yo`nalishining
II-bosqich magistranti

Annotatsiya: O`smir yoshidagi o`quvchilarni har tomonlama yetuk, go`zal axloqli, xush odobli inson qilib kamol toptirish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur muammoni o`rganishda psixologlar oldida turgan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda ta`limni ilmiy asosda to`g`ri, yo`lga qo`yish uchun o`quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. O`quv faoliyati o`smir yoshidagi o`quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi.

Kalit so`zlar: shaxs, bola shaxsi, o`smir shaxsi, psixologik xususiyatlar, faoliyat, individual xususiyatlar, ta`lim, tarbiya, yosh xususiyati, aqliy kamolot darajasi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЯ К СЕБЕ У ПОДРОСТКОВ

Жумамуродова Умидা Муродбаевна
Магистрант 2-курса отделения психологии Национального Университета
Узбекистана

Аннотация: Воспитание учащихся подросткового возраста в всесторонне совершенном, прекрасном нравственном образе является одной из важнейших задач сегодняшнего дня. При изучении данной проблемы необходимо учитывать индивидуальные особенности учащихся для налаживания успешной реализации целей образования, воспитания и задачстоящей перед психологами. Учебная деятельность даёт возможность для учащегося подросткового возраста не только на высоком уровне развития познавательных процессов, но и развития личных качеств.

Ключевые слова: личность, личность ребенка, личность подростка, психологические особенности, деятельность, индивидуальные особенности, образование, воспитание, возрастная особенность, уровень умственной зрелости.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SELF-ATTITUDE FORMATION IN ADOLESCENTS

Jumamurodova Umida Murodbaevna
2nd Year Master's Student in the Department of Psychology National University of
Uzbekistan

Abstract: Educating adolescent students in a comprehensively perfect, beautiful moral image is one of the most important tasks of today. When studying this problem, it is necessary to take into account the individual characteristics of students to establish the successful implementation of the goals of education, education and the tasks facing psychologists. Educational activities make it possible for a student of adolescence not only at a high level of development of cognitive processes, but also the development of personal qualities.

Key words: personality, personality of a child, personality of a teenager, psychological features, activity, individual features, education, upbringing, age peculiarity, level of mental maturity.

Ma'lumki, o`smir shaxsida yetakchi bo`lgan o`quv faoliyatidan ham tashqari boshqa faoliyatlar: o`yin, muloqot va mehnat ham o`quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog`liq bo`lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O`quv faoliyati o`quvchilarda o`qishda muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini qondirsa, tengdoshlari bilan muloqot ular orasida o`z o`rniga ega bo`lish imkoniyatini ham yaratadi. Aynan ana shu o`rin yoki mavqega

erishish uchun ham o'smir yaxshi o'qishga harakat qilish mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zi erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlarining muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish niyoyatda muhim. Bu yoshdagi bolalarda musobaqaga kirishish motivi doimiy ehtiyoj sanalib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlardan aslida bog'cha davrida boshlanib, kichik maktab hamda o'smirlilik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar kattalarning u haqidagi bergen baho va fikrlariga qarab, o'z-o'ziga beradigan bahosi, asosan, to'g'ridan to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bog'liq. Kichik maktab yoshida bolalarda mayjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalashga yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davri bolaning turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarini yuzaga kelish va mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan birgalikda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlari mustahkamlanib boradi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan ishidan zavq olsagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo'lsa unda asta-sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Lekin bolani ertaroq mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy hislatlarini rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki hayotiy tajribalarni kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Va bu o'smirlilik davrida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil ishlarni ko'proq buyurish va ishonch bildirish niyoyatda muhimdir. Shunindek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir ishni mustaqil, ijtimoiy vazifa bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lismaga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Maktab yoshidagi bola o'zining individual xususiyatlarini anglaydi. Bolani o'z-o'zini anglash ham jadal rivojlanma boradi va mustahkmlana boradi. O'smirlilik davrida bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bola o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida katta ahamiyat ega. Mehnatsevarlik, ishdan zavqlanish atamalari bu davrning asosiy mazmunini ifodalaydi bu davrda bolalar nimadan nima hosil bo'lismini va u qanday ishlashini bilishga intilishi bilan band bo'ladi. Bu davrning qaltisligi shundaki, o'z-o'zidan qoniqmaslik hissini, o'z qobiliyatlarini yoki tengdoshlari orasidagi mavqeidan shubhalanish tajribasizlikni namoyon qilishdan iborat. Z. Freyd boyicha bu yosh davri: Latent bosqich – jinsiy sokinlik, 6-7 yoshdan 12 yoshgacha o'smirlilik yoshi boshlangungacha davom etadi. Asosiy energiya kuchi o'qish, sport, bilishga intilish asosan o'zini jinsidagi tengdoshlari bilan do'stlashishga yo'naltiriladi. Freyd insonning jinsiy shakllanishidagi buzilishining ahamiyatini oliy insoniy madaniyatning rivojlanishi uchun sharoit sifatida alohida ta'kidlaydi.

Bolalar maktabga birinchi bor kelganda, yangi munosabatlar tizimi va muloqot doirasi shakllanadi. Maktab davrining ilk kunlaridanoq o'quvchilar bir-birlariga e'tibor bermaydilar hamda tengdoshlarining yutuqlari bilan qiziqmaydilar, muloqotga kam kirishadilar. Lekin vaqt o'tishi bilan o'quvchilar asta-sekinlik bilan bir-birlarini kuzatishni boshlaydilar, muloqotga nisbatan ehtiyoj sezadilar va tengdoshlari bilan do'stlasha boshlaydilar. Boshlang'ich ta'lim oxiriga kelib esa o'quvchilarda tengdoshlari orasida alohida o'ziga xos o'rinni egallashga ehtiyoj shakllana boshlaydi. Tengdoshlarining ta'limiy yutuqlariga qiziqish orta boshlaydi, va ulardan ajralib turishga bo'lgan ishtiyoq xulq-atvorning asosiy motiviga aylanadi. Ularning shaxs sifatlarining shakllanishi o'quv faoliyatidagi hamkorlikka ham bog'liq.

Yuqorida aytilib o'tilgan vazifalarni to'g'ri bajarilishi, o'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbat uyuştirishi, ularda chuqur taassurot qoldiradi va ularni faollik ko'rsatishga undaydi. O'smir yoshidagi o'quvchilarni shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonida yuksak samaraga erishish uchun ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish taqozo qilinadi. Ma'lumki, o'qituvchi turlicha psixologik xususiyatlariga ega shaxs bilan shug'ullanadi. Shuning uchun biror bir o'quvchiga nisbatan muvaffaqiyatli qo'llangan usul boshqa biriga samara bermasligi mumkin. Binobarin, o'zgalarga ta'sir o'tkazish tadbirlari o'quvchi shaxsiga individual yondoshish orqali amalga oshirilsa,

yuqoriroq ko'rsatkichga erishiladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilarini individual-tipologik xususiyatlarini qanchalik chuqr o'rgangan bo'lsa, ularga shunchalik ta'sir o'tkazish kuchi sezilarli va samarali bo'ladi. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining ruhiy dunyosiga yo'l topa olish barcha muvaffaqiyatlarning garovidir. O'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda 3-sinf o'quvchilarining odob to'g'risidagi fikr va mulohazalari 1-2-sinf sinaluvchilariga qaraganda mazmun, shakl, tuzilish jihatdan katta tafovutga ega bo'lib, bu narsa bolaning turmush tajribasining ko'lami, yosh xususiyati va aqliy kamolot darajasi bilan o'lchanadi.

Yosh davr xususiyati bilan izohlanuvchi farq bilan bir qatorda narsaga turlicha qarash, har xil yondoshish, muammo mohiyatini ochib berish uslubi individual tafovut borligini ko'rsatadi. 1-3- sindf o'quvchilarini bilan olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, axloqiy tushunchalarni tarkib toptirish uchun ularning har bir tushunchani muhim belgilari bilan ajratishga, umumlashtirishga o'rgatish zarur.

Shuningdek, mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini takomillashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish usullari bilan boshlang'ich sindf o'quvchilarini qurollantirish maqsadga muvofiq. Boshlang'ich mактабда o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari o'qishda, sportda, bolalar orasidagi nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb etib boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining qaysi jinsga taluqli ekanligini teran anglab, mактабда "O'g'il bolalar" va "Qiz bolalar" guruhi shakllanadi. Har bir guruhning o'ziga xos qiziqishlari, mashg'ulotlari bo'lib, qiz bolalar davrasida bo'lish, masalan, o'g'il bola uchun hattoki, noqulay bo'lib qoladi. Eng muhim, aynan bu davr axloqiy me'yorlarning ma'nosini tushunish, axloqiy qadryatlarni o'zlashtirish va ma'naviy tasavvurlarning shakllanishi uchun o'ta sezgir va qulay hisoblanadi.

Shuning uchun bu davrda kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, ota-onaga ehtirom ko'rsatish, vatanni sevish, shaxsiy va ijtimoiy mulkka to'g'ri munosabat hislari shakllanadi. Bola jazo va rag'batlantirish o'rtafigi farqni ajrata boshlaydi va nima qilib bo'lsa ham jazolanmasdan, ko'pchilikning nazaridan qolmaslikka harakat qiladi. Shu bois ham oilada va ta'lim maskanida bolaning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart-sharoit ayni bu davrda o'zining sezilarli samarasini beradi. Bu davrdagi bolalarda motivatsion- ehtiyojlar doirasi va o'z – o'zini anglash rivojlanib boradi. Bu davrda bolada o'quv faoliyat borasida ota –onasi, oila a'zolari, o'qituvchilar, tengdoshlari orasida o'zini o'zi tasdiqlash hamda uni tan olishlariga intilish kuchayadi. Rivojlantiruvchi ta'limga bo'lган qiziqish, endilikda faoliyat maqsadiga aylanadi. O'quv faoliyatidagi asosiy o'rinni o'qituvchi va tengdoshlari orasidagi yutuqlari, baholari egallay boshlaydi. Bu yoshda bola o'zini o'zi anglash va shaxsiy refleksiya jarayoni, o'z imkoniyatlari chegarasini belgilay olish, ixtiyoriylik va o'zini nazorat qila olish tavsiflanadi.

Shuning natijasida bola o'z xulq- atvorini nazorat qila boshlaydi. U oiladagi va ijtimoiy hayotdagi hulq – atvor me'yorlarini aniq va differensial holda tushuna boshlaydi, kattalar va tengdoshlar bilan shaxslararo munosabatga kirishdagi farqni anglaydi, o'z emotsiyalarini, ayniqsa, negativ emotsiyalarini jilovlab ifodalashni boshlaydi. Shu bilan esda tutish lozimki, o'quv faoliyatini qanday tashkil etilganligi va har bir bola individual xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olgan holda kichik mактаб yoshidagi o'zgarishlar ularda turlicha kechishi mumkin.

O'smir yoshidagi bola shaxsidagi barcha xususiyatlar uning go'daklik davridan tortib, to kichik mактаб yoshigacha, qolaversa, o'smirlik davrida ham o'z izini, ta'sirini ko'rsatadi. O'smir shaxsida o'z-o'ziga munosabatning shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shaxsnинг har tomonlama mukammal va yetuk bo'lib shakllanishida atrof muhitni va ayniqsa oiladagi tarbiyaning o'rni muhim boladi. Bolani tarbiyalashda mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratilsa, bola kelajakda yetuk shaxs bo'lib shakllanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2002. – 167 b.
2. Karimova B.M. Ижтимоий психология. – Тошкент: "Фан ва технология", 2012. – 172 б.
3. Дўстмуҳаммедова Ш.А. ва бошқ. Ёш даврлари ва педагогик психология. – Тошкент, 2013. – 342 б.
4. Rean A.A., Bordovskaya N.B. Психология и педагогика – СПб: Питер, 2005. – 432 с.